



## RAQAMLI PLATFORMALAR VA ILOVALARNING TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI

**Nurmatova Mashhura Tuychi qizi**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talabasi*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XXI asrda raqamli texnologiyalarning ta'lim tizimidagi o'rni, xususan, O'zbekistonda elektron ta'lim platformalarini joriy etish jarayonlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Maqolada mamlakat ta'lim tizimida raqamli infratuzilmaning rivojlanish holati, hududlar o'rtasidagi tafovutlar, elektron ta'lim platformalarining afzalliklari hamda ulardan samarali foydalanish yo'llari batafsil yoritilgan. Shuningdek, Google Classroom, Khan Academy, Moodle, Duolingo va Ibrat Academy kabi zamonaviy ta'lim platformalarining ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Elektron ta'lim platformalarining xavfsizligi, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish va ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlash kabi dolzarb masalalar ham muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari, ta'lim sifati, raqamli infratuzilma, masofaviy ta'lim, Google Classroom, Moodle, Khan Academy, raqamli savodxonlik, ta'limda innovatsiyalar.

**Abstract:** This article analyzes the role of digital technologies in the education system in the 21st century, particularly the processes of introducing electronic learning platforms in Uzbekistan and their effectiveness. The article thoroughly describes the current state of digital infrastructure development in the country's education system, regional disparities, the advantages of electronic learning platforms, and ways to use them effectively. In addition, the importance of modern educational platforms such as Google Classroom, Khan Academy, Moodle, Duolingo, and Ibrat Academy in improving the quality of education is highlighted. The article also discusses pressing issues such as the security of e-learning platforms, improving teachers' digital literacy, developing technical infrastructure, and ensuring equal opportunities in education.

**Keywords:** digital technologies, e-learning platforms, quality of education, digital infrastructure, distance learning, Google Classroom, Moodle, Khan Academy, digital literacy, innovations in education.

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль цифровых технологий в системе образования XXI века, в частности процессы внедрения электронных образовательных платформ в Узбекистане и их эффективность. В статье подробно освещаются текущее состояние развития цифровой инфраструктуры в системе образования страны, региональные различия, преимущества электронных образовательных платформ и пути их эффективного использования. Также показано значение современных образовательных платформ, таких как Google Classroom, Khan Academy, Moodle,



Duolingo и Ibrat Academy, в повышении качества образования. Кроме того, рассматриваются актуальные вопросы безопасности электронных образовательных платформ, повышения цифровой грамотности учителей, развития технической инфраструктуры и обеспечения равных возможностей в образовании.

**Ключевые слова:** цифровые технологии, электронные образовательные платформы, качество образования, цифровая инфраструктура, дистанционное обучение, Google Classroom, Moodle, Khan Academy, цифровая грамотность, инновации в образовании.

XXI asrda raqamli texnologiyalar butun dunyo bo‘ylab ta’lim rivojlanishining asosiy ustuniga aylandi. O‘zbekiston esa global tendensiyalarga mos ravishda o‘z ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda UNESCO tomonidan taqdim etilgan so‘nggi hisobotlarga ko‘ra, ayniqsa elektron ta’lim platformalari va raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Shunga qaramay, infratuzilma yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va teng imkoniyatlarni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistondagi maktab va universitetlarning taxminan 78 foizi internet ulanishi, kompyuterlar va proyektorlar kabi asosiy raqamli infratuzilmaga ega. Biroq, shahar va qishloq hududlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud; Toshkent va Samarqand kabi shahar markazlarida ta’lim muassasalarining deyarli 85 foizi raqamli jihozlar bilan ta’minlangan bo‘lsa, chekka qishloq hududlarida bu ko‘rsatkich atigi 56 foizni tashkil etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamlashtirish jarayoni orqali jadal rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish jarayonida turli ta’lim platformalari muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi, balki bilimlarni yetkazish, monitoring qilish, mustahkamlash va baholashning zamonaviy vositasi sifatida ham xizmat qilmoqda. Umuman olganda, fanni o‘qitishga doir ta’lim platformalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ulardan samarali foydalanilish o‘qish jarayonining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim platformalari ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Bilim olishga teng imkoniyat yaratadi: Masofaviy va gibrid ta’lim orqali geografik yoki jismoniy cheklovlarga qaramay, barcha o‘quvchilarga ta’lim olish imkoniyati yaratiladi.

2. Ta’lim sifatini oshiradi: Interaktiv darslar, videodarslar, testlar, virtual laboratoriyalar orqali o‘quv jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi.

3. Individual yondashuvni ta’minlaydi: Har bir o‘quvchining o‘z bilim darajasiga mos o‘quv materialini tanlanadi. Shaxsiy rivojlanish monitoring qilinadi.

4. O'qituvchining ishini yengillashtiradi: Platformalar darsni rejalashtirish, baholash, hisobot tayyorlash kabi jarayonlarni avtomatlashtiradi.

Mashhur ta'lim platformalariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

Google Classroom – sinf boshqaruvi, material ulashish va topshiriqlar nazorati uchun qulay.

Khan Academy – matematika, fizika, informatika kabi fanlar bo'yicha bepul video va testlar.

Moodle – ta'lim muassasalari uchun ochiq manbali ta'limni boshqarish tizimi.

Duolingo – chet tillarini interaktiv tarzda o'rganish platformasi.

Ibrat academy-chet tillarini o'rgatuvchi bepul darslar.

Platformalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar:

1. Rivojlanish strategiyasiga mos platformani tanlash, ya'ni har bir ta'lim muassasasi yoki foydalanuvchi o'z ehtiyojiga qarab platformani tanlashi lozim bo'ladi.

2. O'qituvchilarni o'qitish va tayyorlash - platformalardan to'g'ri foydalanishni o'rganmagan o'qituvchilar uchun maxsus treninglar o'tkazilishi zarur.

3. O'quvchilarni rag'batlantirish, bunda platformalardan foydalanishni qiziqarli qilish uchun gamifikatsiya (o'yinlashtirish) usullarini qo'llash mumkin.

4. Teskari aloqani ta'minlash: O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muntazam muloqot, fikr almashinuvi muhim.

5. Texnik infratuzilmani rivojlantirish - internet tezligi, kompyuter va qurilmalarning mavjudligi muhim omil hisoblanadi.

Elektron ta'lim platformalarining xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda O'zbekistonda elektron ta'lim platformalarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qonuniy me'yorlar ishlab chiqilgan. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va elektron ta'lim platformalarining samaradorligini oshirish uchun, o'quvchilar uchun moslashtirilgan kurslar yaratish, o'qituvchilarni platformalardan foydalanishga o'rgatish, hamkorlikni kuchaytirish, texnologik infratuzilmani takomillashtirish va hududiy tenglikni ta'minlash zarur. Shu bilan birga, elektron ta'limning pedagogik samaradorligini va o'quvchilar qiziqishini oshirish uchun yangi ilmiy izlanishlar olib borish talab etiladi.

Umuman olganda, elektron ta'lim platformalarining rivojlanishi, ular orqali mustaqil ta'lim olishning yanada osonlashishi, ta'lim jarayonining sifatini oshirishi va har bir o'quvchiga ta'lim olishda yanada keng imkoniyatlar yaratish uchun katta ahamiyatga ega. Bu borada amalga oshirilgan va amalga oshiriladigan ishlar O'zbekistondagi ta'lim tizimining global miqyosda yanada raqobatbardosh bo'lishiga yordam beradi. Bu esa raqobatbardosh, bilimli va malakali avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
  2. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing, 2023.
  3. Google Classroom rasmiy platformasi: Teaching and Learning Resources for Educators. Google for Education, 2023.
  4. Khan Academy. Annual Report 2023. Khan Academy Inc., 2023.
  5. Moodle Documentation. Learning Platform Features and Solutions. Moodle Pty Ltd, 2023.
  6. Duolingo. Duolingo Language Report. Pittsburgh, 2023.
  7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
- 